UO‘K: 94 (575.1)

TURKISTON ASSRDA MEHNATGA OID IJTIMOIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI

H.M. Mo‘minov

Maqolada Turkiston ASSRda sovetlar syezdlari va hukumat organlari tomonidan kommunistik mafkura asosida ijtimoiy sohada mehnatga oid yangi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar o‘rganilgan. 8 soatlik ish kunining joriy etilishi, sanoatni natsionalizatsiya qilishdagi “ishchi nazorati” tizimi va uning xususiy mulkchilikka barham berishi, Mehnat xalq komissarligi, kasaba uyushmalari va mehnat birjalarining tashkil topishi kabi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *mehnat huquqi, mehnat munosabatlari, syezd, bolshevik, eser-menshevik, RSFSR, Turkiston ASSR, XKS, MIQ, Mehnat xalq komissarligi, dekret, deklaratsiya, natsionalizatsiya, ishchi nazorati, kasaba uyushmalari, ishsizlik, mehnat birjalari, bolalar mehnati*.

В статье анализируются реформы, направленные на регулирование новых социально-правовых трудовых отношений в Туркестанской АССР на основе коммунистической идеологии съездами Советов и правительственными органами. В исследовании представлены аналитические данные о таких социально-политических процессах, как введение 8-часового рабочего дня, система «рабочего контроля» при национализации промышленности и её роль в ликвидации частной собственности, а также создание Народного комиссариата труда, профессиональных союзов и бирж труда.

Ключевые слова: *трудовое право, трудовые отношения, съезд, большевик, эсер-меньшевик, РСФСР, Туркестанская АССР, СНК, ЦИК, Народный комиссариат труда, декрет, декларация, национализация, рабочий контроль, профсоюзы, безработица, биржи труда, детский труд.*

KIRISH

Har qanday davlatda ijtimoiy muammolarning hal qilinishida mehnat huquqining qaror topishi va mehnat munosabatlarining tizimli tartibga solinishi dolzarb masala hisoblanib, bu holat ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy nizolarning oldini olish, munosib mehnat sharoitlari va iqtisodiy barqarorlikni qaror toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, Turkiston ASSR tarixida ushbu jarayonlar qay tarzda kechganligini, sovetlar syezdlari va hukumat organlarining bu yo‘nalishdagi faoliyatini o‘rganish bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolani tayyorlashda asosiy e’tibor arxiv materiallari va davriy matbuot ma’lumotlariga qaratildi. Zero, bu manbalar sovet hukumatining ijtimoiy sohada mehnat munosabatlarini tartibga solish borasida olib borgan islohotlari mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, mehnat munosabatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami va turli davriy nashlar ham tadqiqotda muayyan ahamiyat kasb etdi.

Maqolaning metodologik asosini tarixiy bilimlarning tarixiylik, xronologik, tarixiy tizimlilik usullari, ilmiylik va xolislik tamoyillari tashkil etadi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Ma’lumki, 1917-yil oxiri va 1918-yil boshlarida sovet hukumati bolsheviklar davlat hokimiyatini saqlab qolishning asosiy yo‘llaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiy asoslarini qayta qurishga kirishdi. Ushbu tadbirlar shunchaki islohot emas, balki o‘sha paytdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgar-

tirishga qaratilgan siyosiy yo‘l edi. Binobarin, o‘sha davrda sovet hokimiyati uchun mamlakat aholisining tayanch qatlami hisoblangan ishchilarning siyosiy xayrixohligi va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashiga erishish yangi tuzum barqarorligini ta’minlashning eng muhim sharti edi. Shu maqsadda mehnat huquqlarini tartibga solish va ularni amaliy ta’minlash masalasi eng murakkab hamda ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, *“ishchi kuniga necha soat ishlashi kerak?”* degan muhim savolga huquqiy javob sifatida 1917-yil 29-oktabrda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS) tomonidan Petrogradda “Sakkiz soatlik ish kuni to‘g‘risida”gi dekret qabul qilindi. Ushbu hujjat mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish borasida ilk normativ-huquqiy hujjat sifatida xizmat qildi. Bu hujjat 26 moddadan iborat bo‘lib, uning 2-moddasiga ko‘ra, “korxonalarning ichki tartib-qoidalari bilan belgilanadigan ish vaqti bir sutkada 8 ish soatidan va haftasiga 48 soatdan oshmasligi kerak; bu vaqt ichiga mashinalarni tozalash va ish joyini tartibga keltirish uchun sarflanadigan vaqt ham kiradi”, deb belgilandi [1. B. 263–267]. Demak, o‘sha paytda haftada 6 kunlik ish tartibi amal qilgan, yakshanba dam olish kuni bo‘lgan. Shu bilan birga, yangi tartib bo‘yicha tayyorgarlik va tozalash ishlari ham asosiy ishning bir qismi deb tan olindi. Ushbu dekretga binoan, kechki soat 21:00 dan ertalabki soat 5:00 gacha bo‘lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi (5-modda). Kechasi 16 yoshga to‘lmagan ayol va erkak ishchilarning mehnatidan foydalanish taqiqlanadi (6-modda). Voyaga yetmaganlarni (18 yoshgacha) ishga qabul qilishda quyidagi qoidalar qo‘llanilishi belgilandi: a) 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar yollanib ishlashga ruxsat etilmaydi, b) 18 yoshgacha bo‘lganlarning ish vaqti kuniga 6 soatdan oshmasligi kerak (9-modda). Mazkur hujjatda qayd etilgan tartiblar ishchi va xodimlarning shaxsiy vaqtini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, u juda kuchli normativ hujjat edi [2].

Sovetlar davlati mehnat munosabatlari doirasida esa sobiq Rossiya imperiyasi davrida qaror topgan kapitalistik munosabatlarga barham berish, ya’ni xususiy mulkchilik, erkin bozor, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, ishbilarmonlikka asoslangan mamlakat iqtisodiyotini davlat tasarrufiga o‘tkazish orqali ishlab chiqarish hamda taqsimot ustidan “ishchi nazorati”ni o‘rnatishni eng muhim vazifa deb hisobladi. Shu maqsadda 1917-yil 14-noyabrda Butunrossiya Ishchi, dehqon va askar deputatlari sovetlarining Markaziy ijroiya qo‘mitasi (MIQ) tomonidan “Ishchi nazorati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi tasdiqlandi [3. B. 78–82]. Bu hujjat asosida qabul qilingan nizomning 1-bandiga ko‘ra, xalq xo‘jaligini rejali tartibga solish manfaatlarini ko‘zlab, yollanma ishchilari bo‘lgan yoki uyga ish beradigan barcha sanoat, savdo, bank, qishloq xo‘jaligi, transport, kooperativ, ishlab chiqarish shirkatlari va boshqa korxonalarda mahsulot hamda xomashyo ishlab chiqarish, sotib olish-sotish, ularni saqlash, shuningdek, korxonaning moliyaviy tomoni ustidan ishchilar nazorati joriy etilishi qayd etildi [4. B. 35]. Bu “nazorat” xususiy mulk bo‘lgan yer, zavod, fabrika, savdo korxonasi va banklarni tortib olish, ularni umumxalq mulki deya davlat mulkiga aylantirish va keyinchalik natsionalizatsiya qilish (davlat ixtiyoriga olish) jarayonlariga o‘tishning dastlabki bosqichi edi.

Yuqorida qayd etilgan dekretlar Turkiston hududida ham amalga oshirila boshlandi. Shuni aytish lozimki, ilgari ish kuni o‘lkada 10–12, hatto 12–18 soatgacha davom etib, ish haqi esa juda past bo‘lgan. Ishchining o‘rtacha yillik ish haqi 180 rublni (paxta zavodlarida 120–130 rublni) tashkil etgan. Markaziy Rossiyada esa bu ko‘rsatkich 280 rublga teng edi. Ayollar va o‘smirlar erkaklar bilan teng mehnati uchun kamroq haq olardilar, mahalliy millatga mansub ishchilar esa rus hamkasblariga qaraganda 1,5–2 baravar kam maosh olgan [5. B. 50, 54]. Shu o‘rinda o‘lkadagi sanoat sohasining tayanch ishchi kuchi sifatida rusiyzabon millat vakillari bo‘lganligi, mahalliy aholi esa, asosan, dehqonchilik va qisman sanoat sohasida oddiy ishchi bo‘lib ishlaganligini ta’kidlash lozim.

Turkiston o‘lkasida 8 soatlik ish kuni tartibi masalasi ancha oldinroq, ya’ni oktabr to‘ntarishiga qadar ko‘tarilgan edi. Xususan, 1917-yil mart oyining dastlabki kunlaridan boshlab, Turkiston o‘lkasida ishchi va askar deputatlari sovetlari (asosan ruslardan iborat) tuzildi. Ular o‘lkaning barcha yirik korxonalarida ish kunini 8 soatgacha qisqartirish talab qilinib, ish tashlashlarni e’lon qildi. Mazkur sovetlarning ta’siri bilan mehnatga doir masalalar sovetlar syezdlarida ham muhokama qilindi. Masalan, 1917-yil 7–15-aprelda Toshkentda bo‘lib o‘tgan ishchi va askar deputatlari sovetlarining Turkiston o‘lka I syezdining yakuniy (15-apreldagi) majlisida ishchi seksiyaning ma’ruzasi muhokama qilinib, unda “8 soatlik ish kunini joriy etish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, syezd barcha mehnat sohalarida 8 soatlik ish kunini (yoki yakshanba arafasida 7 soat) qonuniy joriy etish, haftada bir kunlik dam olishni ta’minlash va ish vaqtidan tashqari ishlashni taqiqlashni muhim deb hisobladi. Shu munosabat bilan, Muvaqqat hukumatga “8 soatlik ish kunini joriy etish to‘g‘risida”gi dekretni qabul qilish taklifi kiritildi. Shu bilan birga, syezd ishchilar masalasida ish haqi, yarashtirish xonalarini tuzish, ish tashlash, fabrika inspeksiyasi, bolalar va ayollar mehnati, kasalxona kassasi va ishchilarni sug‘urtalash, mehnat birjasi, kasaba uyushmalari masalasida qarorlar qabul qilib, erkak va ayollarning teng huquqliligiga erishishni zarur, deb belgiladi [6]. Biroq syezdda eser-mensheviklardan iborat bo‘lgan delegatlarning ko‘pchilik qismi 8 soatlik ish kunining

tezda joriy etilishiga va korxonalarda ishchi nazorati o‘rnatilishiga qarshi chiqdi [7. B. 13].

1917-yil 15-noyabr kuni Toshkentda Turkiston sovetlarining III o‘lka syezdi ish boshladi. 19-noyabrda syezd “hokimiyatni tashkil etish to‘g‘risida”gi deklaratsiyani qabul qildi. Ushbu hujjatga muvofiq ishchi, askar va dehqon deputatlari o‘lka soveti o‘lkaning oliy hokimiyat organi deb hisoblandi va u qayta nomlanib, Turkiston Xalq komissarlari soveti (XKS) deb nomlandi. F.I.Kolesov (bolshevik) Turkiston XKSga rais etib saylanib, hukumat tarkibi 15 ta komissarlikdan (aloqa yo‘llari, pochta va telegraf, xalq maorifi, oziq-ovqat, adliya, suvdan foydalanish, fuqarolik-ma’muriy qism, moliya, harbiy, xorijiy ishlar, savdo, ishlab chiqarish, mehnat, ziroat, sog‘liqni saqlash) iborat etib belgilandi [8. B. 178–179]. Garchi ushbu hukumat tarkibiga mahalliy aholi vakillari kiritilmagan bo‘lsa-da, yangi shakllangan tizim doirasida o‘lkada mehnat munosabatlarini tartibga solish va qonunchilikni shakllantirish borasida Mehnat xalq komissarligi qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1917-yil 27-dekabrda mazkur komissarlik tomonidan ishsizlik masalasini hal etish bilan birga, ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish maqsadida “Turkiston o‘lkasida mehnat birjalarini majburiy tashkil etish to‘g‘risida”gi nizom ishlab chiqildi. Shu asosda amalda Turkiston o‘lka mehnat birjasi 1918-yilning yanvar oyida Toshkentda ochildi. Uning birinchi raisi V.D.Votinsev edi [9]. O‘sha yilning may oyiga kelib mahalliy mehnat birjalari ham o‘z faoliyatini boshladi. Mehnat birjalarining tashkil etilishi bilan barcha xususiy vositachilik idoralari va ishga yollash bo‘yicha byurolar tugatildi. Bu birjalar mehnatni taqsimlash organlari vazifasini ham bajargan.

1918-yil 19-yanvarda Toshkentda ishchi va askar deputatlari sovetlari IV (favqulodda) o‘lka syezdi ochildi. Kun tartibiga asosan siyosiy masalalar kiritilgan bo‘lsa-da, shu bilan bir qatorda ishsizlik masalasi ham muhokamaga qo‘yildi [10]. Jumladan, 1918-yil 24-yanvardagi majlisda delegatlar armiyaning demobilizatsiya qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishsizlik va unga qarshi kurash masalasini ko‘rib chiqdi. Syezd ishsizlik masalasida quyidagi tadbirni muhim deb hisobladi: o‘lkada ishlab chiqarish ustidan darhol ishchi nazoratini joriy etish, kasaba uyushmalari tarmoqlarini yaratish, ularni markaziy kasaba uyushmalari byurosi bilan birlashtirish, ish vaqtidan tashqari ishni va bolalar mehnatidan foydalanishni mutlaqo man etish, 8 soatlik ish kunini so‘zsiz joriy etish, harbiy asirlarni yurtlariga jo‘natish bo‘yicha tayyorgarlik choralarini ko‘rish, bepul oshxonalar, yotoqxonalar va tibbiy yordamni tezroq tashkil etish [11. B. 13]. Shu asosda IV syezd o‘zining “Ishsizlikka qarshi kurash choralari to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasini qabul qildi. Bu hujjatda quyidagi choralarni amalga oshirish belgilandi: 1) Turkiston o‘lkasida ishlab chiqarish ustidan zudlik bilan ishchi nazoratini o‘rnatish, ishchilar o‘rtasida kasaba uyushmalari tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish va ularni kasaba uyushmalari markaziy byurosi rahbarligida birlashtirish; 2) barcha joylarda mehnat byurolarini tuzish va keng ko‘lamda jamoat ishlarini yo‘lga qo‘yish; 3) maksimal 8 soatlik ish kunini majburiy ravishda belgilash, ish vaqtidan tashqari va qisman ishlashni hamda bolalar mehnatidan foydalanishni so‘zsiz man etish [12].

Yuqoridagi ko‘rsatmalarga tayangan holda, Turkistondagi barcha korxona va xo‘jaliklardan 8 soatlik ish kuniga qat’iy rioya etish takroran talab qilindi. Ammo amalda bu choralar to‘la bajarilmagan. Bunga Mehnat xalq komissarligining 1918-yil 9-maydagi buyrug‘ini misol qilish mumkin. Mazkur buyruqda shunday deyilgan edi: “Turkistondagi ayrim kasblar orasida 8 soatlik ish kuni oshirib yuborilmoqda. O‘lkada ishsizlik mavjudligini hisobga olib, barcha mehnat komissarlariga buyuraman: 1) maksimal 8 soatlik ish kunini joriy etish (o‘tkazish) choralari ko‘rilsin; 2) ishsizlik holatida mehnat komissarlari ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishlarni qat’iy ta’qib ostiga olishlari shart...” [13].

Sovet hukumati Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatish va bunga ishchi kuchini safarbar qilishda kasaba uyushmalaridan ham unumli foydalandi. Bu tashkilotlarning o‘lkadagi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular 1905-yilda dastlab temir yo‘l va aloqa xodimlari tomonidan tashkil etilgan [14]. Fevral inqilobidan so‘ng kasaba uyushmalari ommaviy ravishda shakllana boshladi, biroq 1918-yilga kelib, o‘lkada kasaba uyushmalari sovet boshqaruvi tayanadigan asosiy ijtimoiy va siyosiy kuchlardan biri sifatida shakllandi. Bu jarayonda mazkur tashkilotlarning sovetlari alohida o‘ringa ega bo‘ldi. Zero, ular jamiyatda sovet mafkurasini yoyuvchi asosiy g‘oyaviy targ‘ibotchi bo‘lish bilan birga, son jihatidan ham o‘z safida ulkan ishchi kuchini birlashtirgan edi. Masalan, 1918-yil 21-oktabrda Toshkentning Eski shahar qismida Kasaba uyushmalari soveti tuzildi va 1919-yil 1-aprelga kelib u o‘zida umumiy a’zolari soni 26 ming kishi bo‘lgan 33 ta kasaba uyushmasini birlashtirdi [15. B. 62]. Shuni ham qayd etish kerakki, Turkiston ASSRda aynan kasaba uyushmalari tashabbusi bilan umumiy mehnat majburiyati, ya’ni *“kommunistik shanbaliklar”* ham yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Toshkentda dastlabki birinchi shanbaliklar 1919-yilning 11- va 18-oktabr kunlari yuk stansiyasida bo‘lib o‘tdi, ularga 500 dan ortiq kishi jalb etildi. 1919-yilning so‘nggi uch oyi davomida respublika poytaxtida 22 ta shanbalik tashkil qilinib, ularda jami 3665 kishi qatnashgan [16. B. 68]. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari butun mamlakat bo‘ylab sanoatni natsionalizatsiya qilish, g‘alla

monopoliyasi va oziq-ovqat taqsimoti (razverstka)ni amalga oshirish, transport faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yoqilg‘i qazib olish va boshqa ishlarda ishtirok etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur tashkilotlar davlat va ishchilar o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini o‘tagan.

Ta’kidlash o‘rinliki, Turkiston ASSR mehnat qonunchiligi tizimida mustaqil “Mehnat kodeksi” ishlab chiqilmagan edi. Ya’ni, u RSFSRning 1918-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Mehnat qonunlari kodeksi” [17] asosida shakllantirildi. Bu qonun hujjati Turkiston MIQ tomonidan faqat 1919-yilning o‘rtalariga kelib tasdiqlandi, shu sababli bu kodeks Turkistonda bir oz kechikib qo‘llanildi. Shunday bo‘lsa-da, aynan 1918-yilning o‘zida respublikaning hukumat organlari tomonidan mehnat huquqi va munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan quyidagi nizom va buyruqlar ham qabul qilingan edi:

1) 1918-yil 19-may – Turkiston XKS tomonidan “Sug‘urta soveti to‘g‘risida”gi nizom e’lon qilindi, unga muvofiq Mehnat xalq komissarligi qoshida Sug‘urta soveti tashkil etildi [18].

2) 1918-yil 14-iyun – Turkiston ASSR XKS tomonidan “Turkiston Respublikasi sanoat xodimlarining ish haqi me’yorlari to‘g‘risida’gi nizom tasdiqlandi [19]. Nizom mehnatga kafolatlangan haq to‘lash tizimini joriy etgan holda yangi tarif stavkalari asosida ish haqining eng kam miqdori qiymatini belgiladi. Ammo bu hujjatda mezon sifatida ishning miqdori va sifati e’tiborga olinmadi. Ya’ni, malakali va malakasiz ishchi bir xil maosh olishi iqtisodiy jihatdan “samarasiz” holat edi. Bu hujjatda ish vaqti masalasi ham qayd etildi. Xususan, uning 52-moddasiga ko‘ra, jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan shaxslar uchun ish kuni 8 soat, aqliy mehnat vakillari uchun esa 6 soat qilib belgilandi. Bir oylik ish soatlari miqdori ishchilar uchun 204 soatdan, aqliy mehnat bilan band shaxslar uchun esa 156 soatdan oshmasligi lozim edi [20].

3) 1918-yil 15-iyul – Turkiston ASSR MIQning buyrug‘i bilan “Yangi yil”, 1 may – “Rossiya inqilobi kuni” sifatida bayram kunlari deb e’lon qilindi. Bu bayramning kiritilishi Turkistonning siyosiy jihatdan Markazga (Rossiyaga) bog‘liqligini va yangi tuzumning qonuniyligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari, haftada bir kun – yakshanba dam olish kuni etib belgilandi [21. B. 87].

4) 1918-yil 4-sentabr – Turkiston ASSR XKSning “Bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i e’lon qilindi. Hukumatning bu buyrug‘i bilan 16 yoshga to‘lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini tuzish taqiqlandi. Mehnat birjalari zimmasiga ko‘rsatilgan yoshga yetmagan o‘smirlarni ro‘yxatga olmaslik vazifasi yuklatildi. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish kasaba uyushmalari zimmasiga qo‘yildi. Xizmatga qabul qilib bo‘lingan 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning ishda qolishiga faqat mahalliy kasaba uyushmalari sovetlarining roziligi bilangina ruxsat berilgan [22. B. 12].

5) 1918-yil 24-oktabr – Turkiston XKSning maxsus buyrug‘i bilan “Ishchi va xizmatchilarga ta’til berish qoidalari” tasdiqlandi. Ushbu qoidalarga muvofiq, ishchi va xizmatchilarga ish haqi (ta’minoti) saqlangan holda bir oylik muddatga ta’tilga chiqish, bunda birinchi navbatda zudlik bilan davolanishga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ta’til berish belgilandi [23].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar respublikadagi mehnat qonunchiligining eng muhim tamoyillarini o‘rnatish yo‘lidagi dastlabki qadamlar edi. Soha rivojining keyingi bosqichida respublikaning oliy hokimiyat organi – sovetlar syezdlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va me’yoriy hujjatlar o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ldi.

1918-yilning 20-aprelida Turkiston o‘lka sovetlarining V syezdi Toshkentda ochildi [24]. Kun tartibiga siyosiy va iqtisodiy masalalar bilan birga o‘sha davrda ijtimoiy sohadagi muammolar – ocharchilik va ishsizlik masalalari ham o‘rin oldi. Syezdda Mehnat xalq komissarligining faoliyati atroflicha ko‘rib chiqildi. Mazkur komissarlik rahbari P.G.Poltoraskiy o‘z ma’ruzasida: “Hozirgi vaqtda ishchilar orasida eng dolzarb ikkita masala mavjud – bu natsionalizatsiya va ishsizlik, qolgan barcha yechimini kutayotgan muammolar ulardan keyingi navbatda turadi” [25], – deb ta’kidladi. P.G.Poltoraskiy tomonidan qayd etilgan muammolar o‘sha davrda bir-biri bilan uzviy bog‘liq edi. Korxonalarning natsionalizatsiya qilinishi xomashyo va moliyaviy resurs taqchilligi bilan kechgani sababli, ishlab chiqarish sur’atlari pasayib, ommaviy ishsizlik yuzaga keldi. U ishsizlikka qarshi kurashni tashkil qilish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlarni, xususan, ish kunlarini qisqartirish, ish haqidan ajratmalar, davlat sug‘urtasi, ish haqini mahsulot bilan to‘lash, jamoat ishlaridan ishlab chiqarishni kengaytirish, respublika tomonidan subsidiya ajratish orqali milliy hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etishga ko‘maklashishni taklif qildi [22. B. 35]. Ammo syezdda ishsizlik muammosini hal qiladigan birorta ham amaliy qarorlar qabul qilinmadi. Unda faqat P.G.Poltoraskiy bergan takliflar tinglandi.

1918-yil 5–15-oktyabr kunlari Toshkentda Turkiston Respublikasi sovetlarining favqulodda VI syezdi ish olib bordi. Ijtimoiy sohada mehnat munosabatlari bo‘yicha “joriy holat” hamda respublika oliy hokimiyat organlarining faoliyati yuzasidan hisobot ma’ruzalari muhokamaga qo‘yildi. Syezdning 1918-yil 6-oktabrda bo‘lib o‘tgan ikkinchi majlisida kommunistlar fraksiyasi tomonidan tayyorlangan joriy holatga doir rezolyutsiya qabul qilindi. Ushbu hujjatda o‘sha davrdagi murakkab siyosiy vaziyat tahlil qilinib, sovetlar mavjud bo‘lgan barcha joylarda “kambag‘allar qo‘mitalari”ni

tashkil etish va tez orada “umumiy mehnat majburiyati”ni joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi [26].

Syezdning kun tartibidagi Markaziy Qo‘mita va XKS hisobotlari yuzasidan qizg‘in bahs-munozaralar olib borildi. Shu asnoda yig‘ilishda Mehnat xalq komissarligining ma’ruzasi ham tinglandi. Unda asosiy e’tibor ishchi kuchiga bo‘lgan talabni tartibga solish, ishlab chiqarishda me’yoriy mehnat sharoitlarini yaratish hamda mehnatni muhofaza qilish tizimini shakllantirishga qaratildi. Hisobotda ijtimoiy himoya masalalari ham o‘rin olgan bo‘lib, RSFSR MIQning 1917-yil 29-noyabrdagi dekreti asosida komissariat huzurida davlat sug‘urtasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi Sug‘urta sovetining tashkil etilgani ta’kidlandi. Mazkur tuzilma tomonidan nogironlik, keksalik, homiladorlik va tug‘ruqdan keyingi holatlarni qamrab oluvchi ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish ishlari yakuniga yetkazilganligi qayd etildi [27].

Syezd Turkiston Xalq komissarlari soveti (XKS) hisobotini tinglab, amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qildi hamda adliya, ichki ishlar, milliy ishlar, ziroat, sanoat va sog‘liqni saqlash xalq komissarliklari faoliyatini keskin tanqid ostiga oldi. Yig‘ilish yakunida Markaziy Qo‘mita va XKS hisobotlari yuzasidan kommunistlar fraksiyasining rezolyutsiyasi qabul qilindi. Rezolyutsiyada XKSning yangi tarkibi shakllantirilgani qayd etilib, qayta tashkil etilgan (maorif, moliya, oziq-ovqat, mehnat va ijtimoiy ta’minot, harbiy ishlar va boshq.) 11 ta xalq komissarligiga kerakli vazifalarni belgilab berildi. Bunda Mehnat va ijtimoiy ta’minot komissarligiga “mehnat qilmaydigan unsurlar”ni aniqlash va ularni jamiyatdan ajratish maqsadida mavjud mehnat birjalari orqali barcha ishlamaydigan shaxslarni to‘liq ro‘yxatga olish va bunga qo‘shimcha ravishda mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar va ularning oila a’zolari hamda “inqilob yo‘lida halok bo‘lgan” yoki nogiron bo‘lib qolgan harbiylar va ularning oilalari uchun respublika miqyosida ijtimoiy ta’minot to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish vazifasi topshirildi [28].

1918-yil 15-oktabrda syezdning yakuniy, oltinchi majlisida Turkiston Respublikasining ilk konstitutsiyasi (matni o‘zbek va rus tillarida tayyorlangan) qabul qilindi. Ammo mazkur asosiy qonunga erkaklar va xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy maqomi, teng huquqliligi, ya’ni ularning davlat va jamiyat boshqaruvida, mehnat munosabatlarida teng ekanligini ifodalovchi alohida paragraf yoki band kiritilmadi.

1919-yil 7-mart kuni Toshkentda Turkiston Respublikasi sovetlarining favqulodda VII syezdi o‘z ishini boshladi. Kun tartibidan iqtisodiy, harbiy va moliyaviy sohalarga oid masalalar o‘rin oldi. Jumladan, kambag‘allar hamda yer-suv qo‘mitalarini tashkil etish, dehqonlarni urug‘ va oziq-ovqat bilan ta’minlash, ishchi va xizmatchilarning mehnatini tashkil etish kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Syezd o‘z ishini seksiyalarga bo‘lingan holda olib bordi. Xususan, Mehnat va ijtimoiy ta’minot seksiyasining 1919-yil 15-martdagi majlisida Mehnat va ijtimoiy ta’minot komissarining mehnatni muhofaza qilish hamda aqliy (intellektual) mehnat vakillari uchun 8 soatlik ish kunini joriy etish to‘g‘risidagi ma’ruzasi tinglandi. Mehnatni muhofaza qilish masalasi bo‘yicha seksiya quyidagicha qaror qabul qildi: “Mehnat komissariati tashkil etilgan vaqtdan buyon mazkur sohada yangi qoidalar joriy etilmagani bois, komissarlik mehnatni muhofazasi borasida faqat 1918-yil 22-iyunda Toshkentda o‘tkazilgan kasaba uyushmalari I ta’sis syezdi tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatmalarga tayanib ish ko‘rgan. Shu sababli Mehnat va ijtimoiy ta’minot seksiyasi ushbu masala bo‘yicha Mehnat komissariatiga eng qisqa muddatda mehnatni muhofaza qilishning me’yoriy nizomini ishlab chiqishni taklif etishni zarur deb hisoblaydi” [29]. Ushbu qarorda, shuningdek, yosh, jins, sog‘liq holati va mehnatning o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib, kasblar bo‘yicha ish vaqti me’yorlarini belgilashi lozim bo‘lgan komissiyani tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Ish kunining davomiyligi masalasida seksiya qarorida ta’kidlanishicha, yollanma mehnat uchun ish kuni 8 soatdan oshmasligi va kunduzgi ish vaqtini cheklash chorasi qishloq xo‘jaligidagi yollanma dehqon-mehnatkashlarga ham taalluqli ekani aytilgan. Qarorda ijtimoiy ta’minot, ishchilar kommunasi va artellarini tashkil etish hamda mehnatga haq to‘lash masalalariga doir ko‘rsatmalar ham belgilandi. Mehnat komissarligi tomonidan avvalroq qabul qilingan “Ishchi kommunalari nizomi”ni ma’qulladi va har bir uyezd kasaba uyushmasiga uning asosida namunali kommuna tashkil etish majburiyatini yukladi. Ish haqi masalasida seksiya Turkistonning barcha viloyatlari, shaharlari, volostlari va qishloqlari uchun teng stavkalarni belgilash zarur deb hisobladi [30].

XULOSA

Sovet davrida Turkiston ASSR hududida mehnatga doir ijtimoiy-huquqiy masalalar o‘ta murakkab hamda ziddiyatli tarzda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar to‘qnashuvi ostida kechdi. Bu davrda o‘lkada mehnat munosabatlarida mehnatning taqsimlanishida nomutanosiblik mavjud bo‘lgan. Bunda mahalliy aholi (o‘zbek, qozoq, tojik va boshqalar) asosan dehqonchilik va qisman sanoat sohasida og‘ir jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan holda asosan oddiy ishchi sifatida faoliyatda bo‘ldi. Rahbarlik

lavozimlariga mahalliy millat vakillari qisman jalb etildi. Rusiyzabon millat vakillari esa rahbarlik, ya'-ni boshqaruv va nazorat hamda texnik lavozimlarni egallagan.

1917–1924-yillarda sovet hukumati mazkur respublikada mehnat huquqi va munosabatlari sohasida "hamma teng" prinsipi bo'yicha va'da qilingan ijtimoiy adolat asoslarini qaror toptirishga intilgan bo'lsa-da, biroq amalda bu sohada ham dastlab "Barcha hokimiyat sovetlarga!" shiori ostida, "oktabr inqilobi" e'lon qilgan iddaolar zaminidagi sinfiylik prinsipiga tayangan holda, kommunistik mafkuraga muvofiq ravishda aholining boy tabaqa vakillarini "burjuaziya sinfi" sifatida tugatish va bir partiyaviylik asosda ishchi, askar va dehqon sovetlari hokimiyatini o'rnatishga harakat qilgan edi.

Adabiyotlar:

1. Вестник Университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). 2017. – № 10. – С.263–267.
2. Газета Временного рабочего и крестьянского правительства. 30 октября 1917 г.
3. Декреты Советской власти. Т.I. 25 октября 1917 г. – 16 марта 1918 г. – Москва: Политиздат, 1957. – 640 с.
4. Собрание узаконений и распоряжений рабочего и крестьянского правительства за 1917–1918 гг. / Управление делами Совнаркома СССР. – Москва: Б.и., 1942. – 1483 с.
5. *Заорская В.В., Александер К.А.* Промышленные заведения Туркестана. – Петроград: Екатерин. тип., 1915. – 182 с.
6. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I.1044-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 363–365-varaqlar.
7. Ўзбекистон ССР тарихи. II том. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1958. – 682 с.
8. Материалы к истории советского государства и права Узбекистана. – Ташкент: Изд.-во АН Узбекской ССР, 1958. – 223 с.
9. O'z MA, R.35-fond, 1-ro'yxat, 68-yig'majild, 13-varaq.
10. Наша газета, 22 января 1918 г.
11. *Васильева В.П*. Краевые съезды Советов Туркестанской республики и укрепление диктатуры пролетариата. – Ташкент: Фан, 1940. – 13 с.
12. Наша газета, 27 января 1918 г.
13. Наша газета, 14 мая 1918 г.
14. Профсоюзам Узбекистана исполнилось 120 лет. [Электронный ресурс]. URL: https://jdpu.uz/ru/ozbekiston-kasaba-uyushmalariga-120-yil/ (Дата обращения: 09.02.2025).
15. *Ланда Л.М*. Из истории профдвижения в Туркестане // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент: Изд.-во АН УзССР, 1963. – 141 с.
16. *Нуруллин Р.А.* Первые субботники в Туркестане // Известия АН УзССР, 1956. – №9. – С.68.
17. Кодекс законов о труде 1918 г. [Электронный ресурс]. URL: https://istmat.org/node/31919 (Дата обращения: 09.02.2025).
18. Наша газета, 19 мая 1918 г.
19. O'z MA, R.35-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'majild, 1–10-varaqlar.
20. Советский Туркестан, 15 июня 1918 г.
21. Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений правительства Т.С.С.Р. за 1917–1922 гг. – Ташкент: Комис. СНК, 1923. – 214 с.
22. *Сагдуллаев Т.С*. Создание и развитие советского трудового права в Туркестанской АССР (1917–1924). – Ташкент: Фан, 1966. – 181 с.
23. O'z MA, R.35-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 63, 63-varaq orqasi.
24. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 1-varaq.
25. Наша газета. 1 мая 1918 г.
26. Советский Туркестан. 10 октября 1918 г.
27. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'majild, 38-varaq.
28. Советский Туркестан. 18 октября 1918 г.
29. O'z MA, R.35-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 6-varaq.
30. O'z MA, R.35-fond, 1-ro'yxat, 152-yig'majild, 21–22-varaqlar.

FORMATION OF SOCIAL-LEGAL RELATIONS RELATED TO LABOR IN TURKESTAN ASSR

Kh.M. Muminov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 39-46.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *labor laws, labor relations, congress, Bolshevik, Socialist-Revolutionary (SR) and Menshevik, Russian SFSR, TASSR, Council of People's Commissars (CPC), Central Executive Committee (CEC), People's Commissariat of Labor, decree, declaration, nationalization, Workers' control, trade unions, unemployment, Labor exchanges, child labor.*

The article ia provided analytical information on socio-political processes such as the introduction of an 8-hour working day, the system of "workers' control" in the nationalization of industry and its abolition of private ownership, and the establishment of the People's Commissariat of Labor, trade unions, and labor exchanges. From October 5 to 15, 1918, the Extraordinary VI Congress of Soviets of the Turkestan Republic worked in Tashkent. The "current situation" in labor relations in the social sphere and reports on the activities of the republic's supreme authorities were discussed. At the second session of the Congress, held on October 6, 1918, a resolution on the current situation, prepared by the communist faction, was adopted. This document also analyzed the complex political situation of that time and decided to organize "committees of the poor" in all places where Soviets existed and to soon introduce "general labor obligation". The Congress listened to the report of the Council of People's Commissars of Turkestan (CPC), summed up the work done, and sharply criticized the activities of the People's Commissariats of Justice, Internal Affairs, National Affairs, Agriculture, Industry, and Health. At the end of the meeting, a resolution of the communist faction was adopted on the reports of the Central Committee and the CPSU. The resolution noted the formation of a new composition of the CPSU and assigned the necessary tasks to the 11 reorganized people's commissariats (education, finance, food, labor and social security, military affairs, etc.).

On March 7, 1919, the Extraordinary VII Congress of Soviets of the Turkestan Republic began its work in Tashkent. The agenda included issues related to the economic, military and financial spheres. In particular, issues such as the organization of the poor and land and water committees, the provision of farmers with seeds and food, and the organization of the labor of workers and employees were considered. The congress conducted its work in sections. In particular, at the meeting of the Labor and Social Security Section on March 15, 1919, the report of the Commissar of Labor and Social Security on labor protection and the introduction of an 8-hour working day for representatives of mental (intellectual) labor was heard. On the issue of labor protection, the section adopted the following resolution: "Since the Labor Commissariat has not introduced new regulations in this area since its establishment, the Commissariat has been working on labor protection only based on the instructions developed by the First Constituent Congress of Trade Unions held in Tashkent on June 22, 1918. Therefore, in the article also given some materials about the Labor and Social Security Section considered it necessary to propose to the Labor Commissariat to develop a normative Regulation on labor protection in the shortest possible time.

References:

1. (2017). Vestnik Universiteta imeni O.Y.Kutafina (MGYuA). [Courier of Kutafin Moscow State Law University (MSAL)]. No 10. Pp. 263-267.

2. (1917). Gazeta Vremennogo rabochego i krest'yanskogo pravitel'stva [Newspaper of the Provisional Workers' and Peasants' Government]. October 30.

3. (1957). Dekrety Sovetskoj vlasti. T.I. 25 oktyabrya 1917 g. – 16 marta 1918 g. [Decrees of the Soviet government. Vol.I. October 25, 1917 – March 16, 1918]. Moscow: Politizdat.

4. (1942). Sobranie uzakonenij i rasporyazhenij rabochego i krest'yanskogo pravitel'stva za 1917-1918 gg. / Upr. delami Sovnarkoma SSSR. [Collection of laws and orders of the workers' and peasants' government for 1917-1918 / Administration of the Council of People's Commissars of the USSR]. Moscow: Without imitations.

5. Zaorskaya, V.V., Aleksander, K.A. (1915). *Promyshlennye zavedeniya Turkestana* [Industrial establishments of Turkestan]. Petrograd: Ekaterinburg. type.

6. O'zbekiston Milliy arxivi [National Archive of Uzbekistan, NA of Uz], Fund I.1044, list 1, collection 2, pages 363-365.

7. (1958). History of the Uzbek SSR. Vol II. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

8. (1958). Materiali k istorii sovetskogo gosudarstva i prava Uzbekistana [Materials on the history of the Soviet state and law of Uzbekistan]. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

9. NA of Uz. Fund R.35, list 1, collection 68, page 13.

10. Nasha gazeta [Our newspaper]. January 22, 1918.

11. Vasilyeva, V.P. (1940). *Kraevie sezdi Sovetov Turkestanskoy respubliki i ukreplenie diktaturi proletariata* [Regional Congresses of Soviets of the Turkestan Republic and the strengthening of the dictatorship of the proletariat]. Tashkent: Fan.

12. (1918). Nasha gazeta [Our newspaper]. January 27.

13. (1918). Nasha gazeta [Our newspaper]. May 14.

14. Profsoyuzam Uzbekistana ispolnilos 120 let. [Trade unions in Uzbekistan celebrated their 120th anniversary] [Online]. URL: https://jdpu.uz/ru/ozbekiston-kasaba-uyushmalariga-120-yil/ (Date of Access: 09.02.2026).

15. Landa, L.M. (1963). *Iz istorii profdvijeniya v Turkestane* [From the history of the trade union movement in Turkestan] // Materiali po istorii Uzbekistana [Materials on the history of Uzbekistan] – Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

16. Nurullin, R.A. (1956). *Pervie subbotniki v Turkestane* [The first subbotniks in Turkestan] *Izvestiya AN UzSSR,* No 9. P.68.

17. Kodeks zakonov o trude 1918 g. [The Code of Labor Laws of 1918]. [Online]. URL: https://istmat.org/node/31919 (Date of Access: 09.02.2026).

18. (1918) Nasha gazeta [Our newspaper]. May 19.

19. NA of Uz. Fund R.35, list 1, collection 8, pages 1-10.

20. (1919). Sovetskiy Turkestan [Soviet Turkestan]. June 15.

21. (1923). Sbornik vajneyshix dekretov, postanovleniy i rasporyajeniy pravitelstva T.S.S.R. za 1917-1922 gg. [Collection of the most important decrees, regulations and orders of the government of the T.S.S.R. for 1917-1922]. Tashkent: Komis. SNK.

22. Sagdullaev, T.S. (1966). Sozdanie i razvitie sovetskogo trudovogo prava v Turkestanskoy ASSR (1917–1924) [Creation and development of Soviet labor law in the Turkestan ASSR (1917-1924)]. Tashkent: Fan.

23. NA of Uz. Fund R.35, list 1, collection 4, page 63, back page 63.

24. NA of Uz. Fund R.17, list 1, collection 1, page 1.

25. Nasha gazeta [Our newspaper]. 1 мая 1918 г.

26. Sovetskiy Turkestan [Soviet Turkestan]. October 10, 1918.

27. NA of Uz. Fund R.17, list 1, collection 3, page 38.

28. Sovetskiy Turkestan [Soviet Turkestan]. October 18, 1918.

29. NA of Uz. Fund R.35, list 1, collection 14, page 6.

30. NA of Uz. Fund R.35, list 1, collection 152, pages 21 – 22.

Muallif haqida ma'lumot:

MO'MINOV Husanboy Madaminjonovich – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: xusanboy_mo_minov@adu.uz